Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Zilola Xujaniyazova – ilmiy tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: zturayevna@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-1006-588X

O‘ZBEK TARJIMA SAN’ATIDA OZOD SHARAFIDDINOVNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tarjimachilik maktabining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan tarjimon va adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning tarjimonlik faoliyati, uning badiiy tarjima sohasidagi mahorati hamda milliy tarjimachilik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada tarjimonning jahon adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida qo‘llagan uslubiy yondashuvlari, leksik boylikdan unumli foydalanishi va muallif ruhiyatini saqlab qolishdagi mahorati yoritilgan. Ozod Sharafiddinov tarjimalarida iboralar, tasviriy vositalar va badiiy ifodalar o‘zbek tilining milliy xususiyatlariga mos holda tabiiy va ravon tarzda aks ettirilgani tufayli asarlar kitobxonlarga yanada tushunarli va ta’sirchan yetib borgan. Tarjimon Yevropa hamda rus adabiyotining murakkab va nozik jihatlarini chuqur anglab, ularni o‘zbek kitobxonining dunyoqarashi va madaniyatiga mos shaklda talqin qilgan. Shuningdek, maqolada Ozod Sharafiddinovning tarjimada me’yor, aniqlik va uslubiy uyg‘unlikka alohida e’tibor qaratgani ham tahlil etiladi. Uning tarjimalari o‘zbek tarjimachilik san’atining yuksak namunasi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimonlik mahorati, badiiy tarjima, uslub, leksik boylik, asl nusxa, adabiy me’yor, tarjimachilik san’ati.

Зилола Хужаниязова – научный исследователь
Ташкентский государственный университет востоковедения (Ташкент, Узбекистан)

УНИКАЛЬНОЕ МЕСТО ОЗОДА ШАРАФИДДИНОВА В ИСКУССТВЕ ПЕРЕВОДА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье научно анализируется переводческая деятельность одного из выдающихся представителей узбекской школы перевода - переводчика и литературоведа Озода Шарафиддинова, его мастерство в области художественного перевода, а также вклад в развитие национального переводоведения. В статье рассматриваются стилистические подходы переводчика при переводе произведений мировой литературы на узбекский язык, его умелое использование лексического богатства и способность сохранять дух и художественную сущность оригинального текста. В переводах Озода Шарафиддинова фразеологизмы, изобразительные средства и художественные выражения переданы естественно и плавно в соответствии с национальными особенностями узбекского языка, благодаря чему произведения становятся более понятными и выразительными для узбекских читателей. Переводчик глубоко понимал сложные и тонкие аспекты европейской и русской литературы и интерпретировал их в форме, соответствующей мировоззрению и культуре узбекского читателя. Кроме того, в статье анализируется особое внимание Озода Шарафиддинова к языковым нормам, точности и стилистической гармонии в переводе. Его переводы оцениваются как яркие образцы узбекского искусства художественного перевода.

Ключевые слова: перевод, переводческое мастерство, художественный перевод, стиль, лексическое богатство, оригинальный текст, литературная норма, переводоведение.

Zilola Khujaniyazova – scientific researcher
Tashkent State University of Oriental Studies (Tashkent, Uzbekistan)

OZOD SHARAFIDDINOV'S UNIQUE PLACE IN THE ART OF UZBEKISTAN TRANSLATION

Abstract: This article scientifically analyzes the translation activity of Ozod Sharafiddinov, one of the prominent representatives of the Uzbek school of translation, his mastery in the field of literary translation, and his contribution to the development of national translation studies. The article highlights the translator's stylistic approaches in rendering works of world literature into Uzbek, his effective use of lexical richness, and his ability to preserve the spirit and artistic essence of the original text. In Ozod Sharafiddinov's translations, idiomatic expressions, figurative devices, and artistic elements are naturally and fluently adapted to the national characteristics of the Uzbek language, making literary works more understandable and influential for Uzbek readers. The translator deeply understood the subtle and complex aspects of European and Russian literature and interpreted them in a way that corresponded to the worldview and cultural values of Uzbek readers. Furthermore, the article examines Sharafiddinov's special attention to linguistic norms, accuracy, and stylistic harmony in translation. His translations are regarded as outstanding examples of Uzbek literary translation art.

Keywords: translation, translation mastery, literary translation, style, lexical richness, original text, literary norm, translation studies.

KIRISH

Tarjima xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. U xalq ma'naviyatini boyituvchi, kishi tafakkurini o'stiruvchi va jamiyatning madaniy qiyofasini belgilovchi omil bo'lib, dunyodagi xalqlarning madaniy yaqinlashuvida o'rni beqiyosdir. Tarjima asrlar osha insoniyatning madaniy rivojida muhim rol o'ynab kelayotgan noyob jarayondir. U tillar o'rtasidagi oddiy ko'prik bo'libgina qolmay, balki xalqlarning bir-birini tushunishi, anglashi va yaqinlashuviga zamin yaratuvchi ta'sirchan vositadir. Har bir jamiyatning madaniy qiyofasi uning o'z ichiga singdira olgan va boshqalarga yetkaza olgan madaniy yutuqlari bilan belgilanadi.

Tarjima, ana shu madaniy almashuvning asosiy kanalidir. Boshqa tillardagi ilmiy, adabiy, falsafiy asarlar, yangiliklar, g'oyalar tarjima orqali jamiyatga kirib keladi va uning madaniy rivojiga hissa qo'shadi. Agar jamiyatda tarjima faoliyati sust bo'lsa, u tashqi dunyodan ajralib qolishi, taraqqiyotdan orqada qolishi mumkin.

Turli tillarda so'zlovchi, turli madaniyatlarga mansub kishilar agar ularning adabiyoti, ilmiy asarlari, ijod mahsullari tarjima qilinsa, birbirlarining dunyoqarashi, fikrlashi, hissiy dunyosini tushunib yetadilar. Bu esa, o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Bir millatning boshqa millat madaniyatini bilmaslikdan kelib chiqadigan salbiy munosabatlar, aynan, tarjima orqali paydo bo'lgan bilim va tushunchalar natijasida barham topadi. Jahon adabiyoti, falsafasi, ilm-fani, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarjima orqali o'rganish insoniyatni yagona madaniy makonda birlashtiradi. Shunday ekan, tarjima faqat bir tildan ikkinchi tilga o'girish emas, balki xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, tafakkurini boyituvchi, ularni bir-biriga yaqinlashtiruvchi sharafli va mas'uliyatli ishdir. U zamonaviy jamiyatning madaniy qiyofasini belgilab, insoniyatning umumiy taraqqiyotiga beminnat hissa qo'shadi. Shu sababli, tarjima faoliyatini qo'llab-quvvatlash, tarjimonlarning o'ziga xos mahorat qirralarini tadqiq qilish orqali tarjima sifatini yuksaltirishga zamin yaratish millat va jamiyatning madaniy rivoji uchun dolzarb vazifadir.

Tarjima orqali turli xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, xalqlar o'rtasidagi tushunish va hamkorlikni mustahkamlaydi, madaniy boyliklarni kengaytirib, yangi g'oyalar va an'analarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Xalqlar o'zlarining adabiy va ilmiy asarlarini boshqa tillarda e'lon qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, tillar-

ning rivoji va adabiy merosning saqlanishi keng miqyosda yoyilishiga xizmat qiladi. Ilmiy va texnik adabiyotlarning tarjima qilinishi, ilm-fan sohasidagi yangi yutuqlarning tez tarqalishiga olib keladi. Bu, jahon ilmiy hamjamiyatida hamkorlikni kuchaytiradi. Tarjima orqali turli diniy va ma'naviy qadriyatlarni tushunish orqali ularga nisbatan hurmat ortishi, diniy bag'rikenglik va tinchlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar, turizm va hamkorlik rivojlanadi. Demak, bugungi tezkor davrda dunyo hamjamiyatidagi globallashuv jarayonida, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchaygan bir zamonda tarjima san'atining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir xalqning o'z milliy madaniyati, adabiyoti, falsafasi va ilmiy yutuqlari mavjud. Ammo xalqning bu boyliklari o'z tili doirasida cheklanib qolishi mumkin. Tarjima orqali bu boyliklar boshqa tillardagi kishilar uchun ham ochiladi. Masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa o'zbek adabiyoti namoyandalarining durdona asarlari jahonning turli burchaklaridagi kitobxonlar qo'liga yetib borishi yoki jahon adabiyotining eng sara namunalari o'zbek tiliga tarjima qilinishi natijasida o'zbek kitobxonining dunyoqarashi kengayishini anglatadi. Shu tariqa, tarjima milliy ma'naviyatni jahon madaniyati bilan boyitib, uning o'ziga xos jihatlarini saqlab qolishga yordam beradi.

Tarjima jarayoni shunchaki so'zlarni bir tildan boshqa tilga o'girish emas, balki tarjimondan chuqur tahlil, ikki tilning tuzilishini, madaniy xususiyatlarini, ifodaviy imkoniyatlarini yaxshi bilishni talab qiladi. Tarjimon, bir tomondan, asliyat matnning mohiyatini, muallifning niyatini, ifodalangan fikr va tuyg'ularni to'liq anglashi lozim. Ikkinchi tomondan, bularni o'z tilida shunday mahorat bilan ifodalashi kerakki, tarjima matn ham asl nusxasi kabi ta'sirchan, tushunarli va mafkuraviy jihatdan to'g'ri bo'lsin. Bu murakkab jarayon, o'z navbatida, tarjimonning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va hatto muayyan fanlar bo'yicha bilimlarini oshiradi, uning tafakkurini o'stiradi. Shuningdek, tarjima asarlarni o'qigan kishilar ham turli madaniyatlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi bilan tanishib, o'z tafakkurini boyitadi.

Akademik N.Karimovning "Tarjima san'ati va jahon adabiyoti" nomli maqolasida ta'kadlanishicha, o'zbek adabiyotida tarjima san'ati 1340-yilda forsiyzabon Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonining Qutb Xorazmiy tomonidan, 1390-yilda forsiyzabon Sa'diyning "Guliston" asarining Sayfi Saroyi tomonidan turkiy (o'zbek) tiliga ilk bor tarjima qilinishi bilan boshlangan va shu davrdan boshlab hozirgi O'zbekistonda badiiy tarjima o'zbek madaniyatining tarkibiy qismi sifatida yashab, davrdan-davrga kamol topib kelgan. N.Karimov mazkur maqolada o'zbek tarjima san'atining tadrijiy taraqqiyotini bosqichma-bosqich tahlil qilar ekan, shunday xulosalaydi: "Har bir milliy adabiyotning rivojlanganlik darajasi milliy adabiy an'analarining barqarorligi va o'ziga xosligi bilangina emas, balki shu an'analarning boshqa milliy adabiyotlar bilan ijodiy aloqada boyib, shu adabiyotlardagi eng yaxshi adabiy-badiiy tamoyillardan, ijodiy yutuqlardan bahramand bo'lib borganligi bilan ham belgilanadi" (Karimov, 2017). Darhaqiqat, tarjimachilik an'anasi mumtoz adabiyot tarixida ham, zamonaviy adabiy jarayonda ham muhim badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, milliy adabiyotimiz rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tarjima san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari S.Siddiq, J.Sharipov, G'.Salomov, O.Sharafiddinov, Q.Jo'rayev, M.Mahmudov, S.SHermuhamedov, M.Muhiddinov, S.Olimov, Z.Isomiddinov, B.Nazarov, N.Komilov kabi olimlarning tadqiqotlarida batafsil yoritib berilgan (G'aybulloh as-Salom, 1997). Bu tadqiqotlarda badiiy tarjimashunoslik fanining asoslari, uning xalq madaniyati rivojidagi o'rni va tarjima san'ati masalalari tahlil qilingan. Jumladan, G'.Salomov o'zbek tarjimachilik maktabi tajribasi haqida so'z yuritib, shunday deydi: "...O'zbek tarjimachilik maktabining sabog'i shundaki, bizning yirik shoir, yozuvchi, dramaturg va professional tarjimonlarimiz qayta yaratish jarayoniga (tarjimaga) san'at va ijod deb qarab keldilar" (G'aybulloh as-Salom, 1997).

Jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga o'girgan mohir ijodkorlar qatorida Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, I.G'afurov, A.Rashidov, E.Vohidov, A.Oripov va boshqalarning nomlari alohida e'tirof etiladi.

Ana shunday xayrli ishga astoydil bel bog‘lab, o‘ziga xos maktab yaratgan ijodkorlardan biri - O‘zbekiston Qahramoni, taniqli olim Ozod Sharafiddinov ham tarjima ishlarida ham alohida samarali ijod qilgan edi.

O.Sharafiddinov ijodining avvalgi qismida zakiy adabiyotshunos olim va teran tahlil qiluvchi adabiy tanqidchi sifatida tanilgan. Xususan, Cho‘lponshunos olim sifatida ijodkor olamini o‘rganar ekan, uning tarjimonlik mahoratiga alohida e’tibor qaratadi va 1990-yilda “Guliston” jurnalida “Cho‘lpon – tarjimon” nomli maqolasini e’lon qiladi. Ushbu maqolada tarjimonlik san’ati borasidagi nazariy qarashlarini ham bayon qiladi. Olim Cho‘lponning mahoratiga yuksak baho berib, “tarjimonlik dorilfununini yaratgan” – deya baholaydi va shunday yozadi: “Cho‘lpon biron boshqa janrda ijod qilmaganida ham tarjimalarining o‘ziyoq uning nomini o‘zbek adabiyoti tarixining eng mo‘tabar joyiga yozib qo‘yish uchun kifoya qilardi. Cho‘lpon tarjimalari bilan o‘zbek xalqining yangi madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shdi” (Sharofiddinov, 1990). Ajabki, xuddi mana shunday e’tirofni munaqqid-tarjimonning o‘z mehnatiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Zero, olim – tarjimonning o‘zbek tiliga o‘girgan asarlari salmoqli o‘rin egallaydi. Mutarjim asarlarni, asosan, rus tili orqali tarjima qilgan.

Ozod Sharafiddinov ijodining avvalgi pallalarida yetuk munaqqid, Qahhorshunos va Cho‘lponshunos olim sifatida tanilgan bo‘lsa, 90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tarjimonlik faoliyati bilan izchil shug‘ullana boshladi.

Bunga sabab bo‘lgan omillar qatorida quyidagilarni aytish mumkin:

- birinchidan, adabiyot va ijod olamida yetarli tajribaga ega bo‘lganligi;

- ikkinchidan, mustaqillikka erishilgandan so‘ng o‘zbek adabiyoti jahon hamjamiyatiga dadil yuz burganligi;

- uchinchidan, ikkinchi omil bilan bevosita bog‘liq holda “Jahon adabiyoti” jurnalining tashkil etilishi hamda olimning jurnalga bosh muharrir etib tayinlanishi.

Darhaqiqat, O.Sharafiddinovning muharrirlik faoliyati ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak baholanishi bejiz emas: “Olim bu yumushni havas qiladigan darajada, shu qadar vijdonan, shu qadar katta saviya bilan bajardiki, endi, bugungi kunda biz o‘zbek xalqining madaniyati, ma’naviy-ma’rifiy darajasini ko‘z-ko‘z qiladigan bo‘lsak, "Jahon adabiyoti" jurnalini varaqlab ko‘rib, "o‘zbek" ziyolisining saviyasi, didi nimalarga qodir ekanligini ko‘rishni xohlasangiz, ana shu jurnalga qarang", deyishimiz mumkin. Ozod Sharafiddinov bu jurnalni oyoqqa turg‘azdi, shogirdlarini bu ishga jalb etib, dunyo adabiyotidagi eng ulkan va eng ibratli asarlarni tarjima qildirdi” (Sharofiddinov, 1990).

Ma’lumki, ijodkorlar bevosita va bilvosita tarjima usullaridan foydalanadilar. O‘z davrida Abdulla Qahhor bilvosita tarjimaning ham muvaffaqiyatli usul bo‘la olishi xususida shunday yozgan edi: “Biz doim asl nusxaning o‘zidan tarjima qila biladigan tarjimon bo‘lsa deymiz. Lekin bunday tarjimonlar bizda hozircha u qadar ko‘p emas. Nega endi biz milliy adabiyot muhlislarini rus tili orqali olayotgan zavqi, quvonchidan mahrum qilishimiz kerak? Lope de Vega, Molyer, SHekspir, Goldoni asarlari sahnalarimizdan tushmay o‘ynaladi; kitobxonlarimiz V.Gyugo, R.Tagor, J.Vern, J.London, E.Zolya, Lu Sin, G.Flober, R.Rollan, T.Drayzer, E.Xeminguey, Y.Fuchik asarlarini o‘z ona tillarida o‘qimoqdalar. Bularning barchasi o‘zbek tiliga rus tilidan tarjima qilingan” (Abdulla Qahhor, 1962).

Ozod Sharafiddinov ham badiiy va publitsistik asarlarni rus tili orqali bilvosita tarjima qilgan. Tarjimonning o‘zbek kitobxonlariga taqdim etgan asarlari janr va mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, butun bir galereyani tashkil etadi. O‘nlab publitsistik asarlar, adabiy-tanqidiy maqolalar, shuningdek, hikoya, qissa va romanlarning ijodkorning tarjima ro‘yxatidan o‘rin olishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Masalan, yunon faylasuflari Aflotunning “Oila ne’matdir”, Arastuning “Davlatning tarkibi” asarlari, Genri Toroning “E’tiqodsiz hayot” (AQSH), I.Bunichning “Partiyaning oltinlari”, Vladimir Mauning “Ziyolilar: tarix va inqilob” (Rossiya) kabi publitsistik asarlari, Fransuaza Saganning “Ko‘lmak suvda quyosh parchasi” (Fransiya), Erik Sigalning “Muhabbat tarixi” (AQSH) qissalari, Paulo Koelyoning “Alkimyogar”, “Beshinchi tog‘” (Braziliya), Efraim Sevelaning “To‘xtating samolyotni, tushib qolaman” (Belorus), Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” (Angliya) A.Munifning “Olis yo‘lning

saboqlari” (Arab), Jorj Simenonning “Megre va arvoh” (Fransiya) kabi romanlari yuksak mahorat bilan tarjima qilingan.

XULOSA

Tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishida tarjimonning so‘z mahorati va ijodkorligi asosiy omil hisoblanadi. Tajribali tarjimon O.Sharafiddinov har ikki tilni ham chuqur bilish bilan birga, ularning har birida o‘z fikrini mohirona ifodalay oladigan so‘z ustasi bo‘lib, tarjima – bu faqat asliyatga ergashish emas, balki yangi tilda asarni “qayta yaratish” jarayoni ekanini yaxshi anglaydi. Ba’zan, asliyatdagi murakkab jumlalarni ikkinchi tilda aniq va ravon ifodalash uchun tarjimon ijodiy yechimlar topishiga to‘g‘ri keladi. Adabiy tarjima, ko‘p hollarda mukammalligi sabab “ikkinchi mualliflik” sifatida baholanadi, chunki tarjimon asarni o‘z tilida yangi hayotga olib chiqadi. Mahoratli tarjimon Ozod Sharafiddinov tarjimalari mana shunday tarjimalar sirasiga kiradi.

Olimning tarjimalarida matnning uslubi, ruhi, lisoniy jozibasi butunlay saqlanib qoladi. Bu esa tarjimonning til boyligi, chuqur bilimi va madaniyatlararo muloqot sohasidagi yetukligidan dalolat beradi. Bu tarjimalar nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng kitobxonlar tomonidan ham yuqori baholanadi. Uning tarjimalari o‘zbek adabiyotining xazinasini yanada boyitish bilan bira jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini o‘zbek kitobxonlariga taqdim etdi. Shuning uchun ham Ozod Sharafiddinovning samarali mehnatlari natijasi bo‘lgan tarjimalarini o‘rganish, tarjimonlik mahoratiga yuksak baho berishga to‘la haqlimiz.

ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Tarjima san’ati va jahon adabiyoti // Jahon adabiyoti, 10-son, 2017. - B.185
2. Sharafiddinov O. Cho‘lpon – tarjimon // Guliston, №2, 1990. – B.16-17
3. http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod_Sharafiddinov
4. Abdulla Qahhor. Tarjimachilik tashvishlari // Literaturnaya gazeta, 1962, 17-mart.
5. G‘aybulloh as-Salom. Ey umri aziz. –Toshkent: Sharq, 1997. - B. 121.
6. Ozod Sharafiddinov Zamon. Qalb. Poeziya. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
7. Ozod Sharafiddinov Iste'dod jilolari, Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
8. https://www.researchgate.net/publication/400542958_ozod_sharafiddinov_-_master_translator?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7InBhZ2UiOiJzY2llbnRpZmljQ29udHJpYnV0aW9ucyIsInByZXZpb3VzUGFnZSI6bnVsbH19